

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Rus tili va adabiyoti kafedrası yig'ilishi dan ko'chirma
BAYONNOMADAN KO'CHIRMA
№ 2 -son

27.09.2025 yil

DTPI Rus tili kafedrası

Yig'ilish raisi: J.G.Choriyev – rus tili va adabiyoti kafedrası mudiri
Kotib: S.X.Xusanova

Qatnashdilar: Filologiya fakulteti dekani – M.N., kafedra mudiri, kafedra
professor-o'qituvchilari. Jami: 21 kishi

KUN TARTIBI:

Rus tili va adabiyoti o'qituvchisi Choriyeva Sharofat Turayevna tomonidan
“Mnogochlennoe slozhnoe predlozhenie: semantika va punktuatsiya xususiyatlari”
mavzusida o'tkazilgan amaliy darsi tahlili.

EShITILDI:

Kafedra mudiri J.G.Choriyev so'zga chiqib, bugungi yig'ilishda
Sh.T.Choriyevaning “Mnogochlennoe slozhnoe predlozhenie: semantika va
punktuatsiya xususiyatlari” (Многочленное сложное предложение) mavzusida
o'tkazilgan ochiq amaliy darsi muhokama qilinishini ta'kidladi.

SO'ZGA CHIQQILAR:

Sh.Q.Amanqulov –registrator ofisi boshlig'i: Amaliy darsi puxta tayyorlanganini,
ko'p qismli murakkab gaplarning semantik bog'lanishi va punktuatsion qo'llanilishiga
oid jihatlar amaliy misollar asosida yoritilganini qayd etdi. Talabalar mavzuga faol jalb
qilingan, mustaqil tahlil va umumlashtirish ko'nikmalari shakllantirilgan.

S.X.Xusanova – rus tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi: Darsda
multimedia vositalari samarali qo'llanganini, ko'p qismli murakkab gaplarda
intonatsiya va tinish belgilarining qo'llanishi aniq misollar orqali ko'rsatib berilganini
ta'kidladi.

R.H.Aminova – o'qituvchi: Mashg'ulot davomida talabalar tanqidiy fikrlash va
ijodiy yondashuv asosida mustaqil ishlashga yo'naltirilgani, nazariy bilimlarning
amaliy topshiriqlar bilan bog'langanini aytib o'tdi.

Yig'ilish yakunida J.G.Choriyev barcha fikrlarni umumlashtirib, o'qituvchi
tomonidan olib borilgan amaliy darsi kafedra tomonidan ijobiy baholanishi lozimligini
qayd etdi.

QAROR QILINDI:

Bildirilgan barcha fikr va mulohazalarni inobatga olish.

“Mnogochlennoe slozhnoe predlozhenie: semantika va punktuatsiya
xususiyatlari” (Многочленное сложное предложение) mavzusidagi amaliy darsi oliy
ta'lim talablariga mos va samarali tashkil etilganini qayd etish.

O'qituvchi Sh.T.Choriyevaning ochiq amaliy darsini ijobiy baholash.


Ovoz berildi: «ha» – bir ovozdan.

Yig'ilish raisi:

J.G.Choriyev

Kafedra kotibi:

S.X.Xusanova



Filologiya fakulteti rus tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi Choriyeva Sharofat Turayevna tomonidan "O'zga tilli guruhlarda rus tili" ta'lim yo'nalishi 4-bosqich 402-guruh talabalariga "Hozirgi adabiy rus tili" fanidan "Ko'p tarmoqli qo'shma gap tahlili va tasniflanishi (Анализ и классификация многочленных сложных предложений)" mavzusida amaliy ochiq dars o'tkazildi. Mashg'ulotda registrator ofisi boshlig'i Sh.Amanqulov, kafedra professor-o'qituvchilari R.Aminova, S.Xushboqova kuzatuvchi- ekspertlar sifatida ishtirok etishdi.

Darsda talabalar qiziqarli amaliy topshiriqlarni bajarishdi va muhokama qilishdi. Muhokamada o'qituvchilar ham ishtirok etishdi. Amaliy dars qiziqarli va bahs-munozaralarga boy tarzda bo'ldi.